


**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

**60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo‘jaligida) bakalavriat ta’lim  
yo‘nalishining malaka talablari**

**Toshkent - 2023**



**ISHLAB CHIQLGAN:**

Toshkent davlat agrar universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» avgust dagi 367- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talabi "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikator", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60710400 – <i>Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo'jaligida)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi .....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	60710400 – <i>Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo'jaligida)</i> ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60710400 – <i>Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo'jaligida)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	60710400 – <i>Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo'jaligida)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60710400 – <i>Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo'jaligida)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	60710400 – <i>Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo'jaligida)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60710400 – <i>Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo'jaligida)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	60710400 – <i>Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo'jaligida)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetentsiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetentsiyalar.....	6
2.3	Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	60710400 – <i>Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo'jaligida)</i> bakalvriat ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.3	60710400 – <i>Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo'jaligida)</i> bakalvriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	10
	Kelishuv varag'i.....	11



**1. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo‘jaligida) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tavsifi**

**60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo‘jaligida)** ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

**1.1. Qo‘llanish sohasi.**

**1.1.1. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo‘jaligida) Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi **60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo‘jaligida)** ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta‘lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;
- ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;
- oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo‘jaligida) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

**1.2.1. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo‘jaligida) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo‘jaligida)** ta‘lim yo‘nalishi bo‘lib, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida ta‘lim yo‘nalishiga oid fanlarni o‘qitish;

- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasbiy ta‘limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalari bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo‘jaligida) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi va uning tizim tashkilotlari, davlat va nodavlat tashkilotlar, korxonalar va muassasalar, ishlab chiqarish boshqarmalari va boshqalar;

- ekologiyaning turli soha va tarmoqlarda tashkilot, korxonalar va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;

- boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondashuv tamoillarini tadbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

- o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, tahlil qilish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va uni oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- ekologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni umum qabul qilingan uslublarda olib borish;
- ilmiy-tadqiqot jarayonlari;
- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlari va korxonalarini boshqarish tizimlari;

**60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo‘jaligida)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi. Bakalavriatning kasb ta’limi yo‘nalishlari bundan mustasno.

**1.2.3. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo‘jaligida) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- ilmiy – tadqiqot faoliyati;
- ishlab chiqarish-texnologik faoliyati;
- loyihaviy-xaritalash va ekologik baholash faoliyati;
- ekologiya va atrof-muhitni muhofazaviy servis xizmati faoliyati;
- tashkiliy-boshqarish faoliyati kabilarni o‘z ichiga oladi.

**1.2.4. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo‘jaligida) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

**60710400– Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo‘jaligida)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘yektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

**Ilmiy tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqot muassasalarida ishlash;
- muayyan hududdagi ekologik muammolarni o‘rganish bo‘yicha namunaviy uslublar asosida ilmiy izlanishlar olib borish;
- atrof-muhitni muhofaza qilishda chiqindilarning me‘yoriy talab normalariga va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va nazorat qilish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofazasini tashkil etish;
- o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy obzorlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy seminarlar, simpoziumlar va ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirok etish;
- ilmiy-ishlab chiqarish matbuotlariga maqolalarni tayyorlash;
- innovatsion ko‘rgazma yarmarkalarida ilmiy izlanishlar natijalarini namoyish etishda qatnashish;

**Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:**

- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni boshqarish va boshqa tuzilmalarda ishlash;
- biologik resurslarni tiklash, saqlash va oshirishni rejalashtirish hamda joriy qilish;
- ishlab chiqarish sharoitlarida atrof-muhitga ko‘rsatiladigan ta’sir jarayonlari va darajalarini baholash;
- atrof-muhitni muhofaza qilishda chiqindilarning me‘yoriy talab normalariga va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va nazorat qilish;

**Loyihaviy-xaritalash va yerlarni baholash faoliyatida:**

- loyihalash institutlarida ishlash, loyiha-qidiruv ishlarini olib borish va boshqa ishlar;
- ekologik izlanish ishlari natijasida ekologik xaritalar va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini ishlab chiqish;
- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;



### **Ekologiya va atrof-muhitni muhofazaviy servis xizmati faoliyatida:**

- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish laboratoriyalarda ishlash;
- atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiyanomalar berish;
- iqlim o'zgarishimi global, mahalliy va mintaqaviy muammolar doirasida o'rganish va baholash;

### **Tashkiliy-boshqarish faoliyatida:**

- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisobga olish hamda baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;
- boshqaruvda qaror qabul qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalanishni hisobga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va hayot faoliyat xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida ishlab chiqarish jarayonlarini monitoringini amalga oshirish;
- kasbiy muammolar yechimini topish;
- ijrochi jamoa ishini tashkil qilish;
- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruvda qaror qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish bo'g'ini ishini tashkil qila olish va boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish hamda ish natijalarini baholash *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.*

## **2. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetentsiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

### **2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:**

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ekologik xaritalarini tuzish va ulardan foydalanish;
- tabiiy va biologik resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofazasini tashkil etish;
- biologik resurslarni tiklash, saqlash va oshirishni rejalashtirish hamda joriy qilish;
- yirik masshtabli xaritalar va xaritanomalarni tuzish;
- chiqindilarni nazorat qilish;
- ekologik izlanish ishlari natijasida ekologik xaritalarini ishlab chiqish;
- ekologik muammolarini baholash bo'yicha yo'riqnomalar tuzish va ball bonitetini belgilash;

- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid laboratoriyalarda ishlash;
- atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha yagona texnik va texnologik siyosatni olib borish;
- hududidagi iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligi va chorvachilikka ta'sirlarini o'rganish va nazorat qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, suv va yer resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish;
- agrogeotizim, urbogeotizim industrial hududlar o'zgarishlarini nazorat qilish va tahlil qilish, baholashni o'rganishi;
- bioekologik vaziyatni yaxshilash va tabiiy muhitni optimallashtirish chora-tadbirlarini loyihalash;
- iqlim o'zgarishini global, mahalliy va mintaqaviy muammolar doirasida o'rganish va baholash;
- barqaror raqobatdoshlik asoslarini yaratishda atrof-muhit muhofazasini amalga oshirishi;
- mehnat jamoasiga rahbarlik qilish;
- ishlab chiqarish faoliyatida boshqarish sifatini nazorat qilish va tadbiq etish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va zahiralarni rejalashtirish hamda ularni ishlab chiqarishga tadbiq etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- ilmiy-tadqiqot muassasalarida ishlash;
- muayyan hududdagi ekologik muammolarni o'rganish bo'yicha namunaviy uslublar asosida ilmiy izlanishlar olib borish;
- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy obzorlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy seminarlar, simpoziumlar va ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirok etish;
- ilmiy-ishlab chiqarish matbuotlariga maqolalarni tayyorlash;
- innovatsion ko'rgazma yarmarkalarida ilmiy izlanishlarning natijalarini namoyish etishda qatnashish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni boshqarish va boshqa tuzilmalarda ishlash;
- loyihalash institutlarida ishlash; loyihalashtirishda zamonaviy kommunikatsion, informatika va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta'minlaydigan va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.



2.3.1. Kvalifikatsiya: Ekolog, agroekolog.

2.3.2. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5220	174
Tanlov fanlar	1200	40
Malakaviy amaliyot	660	22
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

2.3.3. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo'jaligida) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlar, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>5220</b>	<b>174</b>	
1.01	O'EYTB1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	DINB1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	FALB1604	Falsafa	120	4	6
1.04	XJTNB1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	O'T O'SQB1104	O'zbek (rus) tili: O'zbek tilini sohada qo'llash	120	4	1
1.06	JMSB1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
1.07	OMTB1104	Oliy matematika	120	4	1
1.08	ANFKBKB1206	Analitik, fizkolloid va bioorganik kimyo	180	6	2
1.09	BO'FZB1110	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi	300	10	1,2
1.10	EKOASB1106	Ekologiya asoslari	180	6	1
1.11	QXAKTB1204	Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar	120	4	2
1.12	O'SBKB1104	O'simliklar biokimyosi	120	4	1
1.13	TPAKB1308	Tuproqshunoslik va agrokimyo	240	8	3,4
1.14	TROFB1310	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish	300	10	3,4
1.15	EKMONB1308	Ekologik monitoring	240	8	3,4
1.16	AGROEKB1310	Agroekologiya	300	10	3,4
1.17	BIOGEGB1406	Biogeografiya	180	6	4
1.18	BXXUMB1510	Bioxilma-xillik va uning muhofazasi	360	12	5,6
1.19	BIOGEOEB1510	Bioekologiya va geoekologiya	360	12	5,6
1.20	EKBRRB1506	Ekologik barqaror rivojlanish	180	6	5
1.21	SHSEKB1706	Shahar va sanoat ekologiyasi	180	6	7



1.22	EKOXFSB1706	Ekologik xavfsizlik	180	6	7
1.23	IQO'EMB1706	Iqlim o'zgarishi va ekologik moslashuv	180	6	7
1.24	O'HQB1806	O'simliklarni himoya qilish	180	6	8
1.25	GEKTKB1806	Garbologiya va ekotoksikologiya	180	6	8
1.26	GIDROEKB1806	Gidroekologiya	180	6	8
1.27	IJEKOB1804	Ijtimoiy ekologiya	120	4	8
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1200</b>	<b>40</b>	
2.01		Tanlov fanlar	1200	40	3.4,5,6,7,8
		<b>Jami</b>	<b>6420</b>	<b>214</b>	
	MALAMAL1222	Malakaviy amaliyot	660	22	2,4,6,7
		Yakuniy davlat attestasiyasi	120	4	8
		<b>Jami</b>	<b>780</b>	<b>26</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

---


**Tayanch so'zlar:**

ekologiya, bioekologiya, atrof-muhit, yer resurslari, o'simlikalar va hayvonot dunyosi, ekologik muammolar, lokal, regional, global muammolar, gidrosfera, atmosfera, litosfera, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik xavfsizlik, ekologik ekspertiza, abiotik, biotik, antropogen omillar, ekologiyaga oid qonunlar, mitaqaviy, ijtimoiy ekologiya, o'simliklar dunyosini muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi, urbanizatsiya, bioxilma-xillik, cho'llanish, qurg'oqchilik, Bonn konvensiyasi yovvoyi hayvonlarning ko'chmanchi turlarini saqlash bo'yicha konvensiya, suvda suzuvchi qushlarning yashash muhiti sifatida xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suv-botqoq muhitlari to'g'risidagi (Ramsar) konvensiyasi, xalqaro hamkorlik, issiqxona samarasi, kamayib yo'qolib borayotgan turlar, davlar qo'riqxonalari, ekotizim, agrosenoz, biosenoz, areal, populyatsiya, muqobil energiya, oqova va chiqindi suvlarni tozalash, agroekologiya, ekologik boshqaruv, ekologik nazorat, tabiatdan oqilona foydalanish, tabiiy resurslar, ozon qatlami, fitosenoz, zoosenoz, o'simliklar jamoasi, inson ekologiyasi, tabiiy yodgorliklar, buyurtmaxonalar, milliy bog'lar.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor  S. Islamov

2023 yil « 10 » 07



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi

Direktor  Sh. Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi  
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va  
iqlim o'zgarishi vazirligi Inson resurslarini  
boshqarish bo'limi

Boshlig'i  D. Ashirova

2023 yil « 18 » 07

M.O'.

Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti

Rektor  I. Madjidov

2023 yil « 19 » 07

M.O'.



Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va  
iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Atrof-  
muhit va tabiatni muhofaza qilish ilmiy  
tadqiqot instituti

Direktor  B. Pulatov

2023 yil « 20 » 07

M.O'.





**Toshkent davlat agrar universiteti**  
**60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi**  
**bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiqaruvchilar, turdosh oliy ta'lim**  
**muassasalari va asosiy kadrlar is'temolchilari o'rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“ 10 ” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Inson resurslarini boshqarish bo'limi boshlig'i D.Ashirova, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti rektori I.Madjidov, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish ITI direktori B.Pulatov, Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori S.Islamov birgalikda ToshDAU da ishlab chiqilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi**

**Inson resurslarini boshqarish bo'limi boshlig'i**



**D. Ashirova**

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti rektori, professor**



**I. Madjidov**

**Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish Ilmiy tadqiqot instituti direktori**



**B. Pulatov**

**Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, professor**



**S. Islamov**

